

## **Glossariy:**

**Suvo‘tlar** — sodda tuzilgan, asosan suvli muhitda o‘sadigan organizmlar. Suvo‘tlar bir hujayrali mikroskopik kattalikdagi organizmlar, koloniya bo‘lib yashaydigan, ko‘p hujayrali va 60 metrga qadar o‘sadigan turlarga ega. Ayrim turlarida to‘qimalar rivojlangan.

**Agar-agar** — ayrim dengizlarning qizil va qo‘ng‘ir rangli o‘simliklaridan alohida usulda qaynatib olinadigan shilimshiq modda. Agar-agar tarkibida 50-80% gacha agaroz bo‘ladi. Oziq-ovqat sanoatida qo‘llaniladi.

**Agarli kultura** — suvo‘tlarni agar-agarli oziq muhitda o‘stirish jarayoni.

**Karotin** — ko‘proq sabzi, tuxum sarig‘i, sut kabi mahsulotlarda mavjud bo‘lgan, deyarli har bir o‘simlik tarkibida uchraydigan sariq-zarg‘aldoq rangli modda. Odam tanasida A vitamini faqat karotin moddasidan hosil bo‘ladi.

**Pigmentlar** — (lot. pigmentum — bo‘yoq) organizmlar to‘qimalariga kiradigan bo‘yoq birikmalaridir. Pigmentlar rangi ular molekulasida tarkibidagi xromofor guruhidan kelib chiqadi, bu guruh quyosh spektrining ko‘zga ko‘rinadigan nurlarini (380—750 nm) tanlab yutadi.